

**XORAZM VILOYATI SHAROITIDA QOVOQ URUG'INI UNUVCHANLIGINI
O'RGANISH****Ramatov B.Z***Urganch daylat universiteti. dotsent, Urganch sh.***Matyaqubov M.M***Respublika cabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti taznch
doktaranti.***Bekchanov X.Y***Urganch daylat universiteti. Ass.o'qituvchi . Urganch sh.*

Dunyoning qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarida aholini qishloq xo'jalik mahsulotlari jumladan, meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida klaster usulida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish keng yo'lga qo'yilgan. Ammo, turli ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish murakkablashayotganligi, global tabiiy-iqlim o'zgarishi, Covid-19 pandemiyasining dunyo bo'yicha keng tarqalishi barcha sohalar singari meva-sabzavot yetishtiruvchi xo'jaliklarda va ularda boshqarishda muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. SHu bois, rivojlangan mamlakatlarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishda ixtisoslashgan klasterlar usulidan foydalanish orqali tarmoqni rivojlantirish, zamonaviy resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash hamda zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etishga keng e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda meva-sabzavot mahsulotlarining o'rni va ahamiyati yuqori bo'lib, 2021 yilda respublikada 10,8 million tonna sabzavot, 3,2 million tonna kartoshka, 2,2 million tonna poliz, 2,8 million tonna meva va 1,7 million tonna uzum yetishtirildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2016 yilda respublikamizdan qiymati 172,23 mln dollarga teng bo'lgan 68 ming tonna qovoq eksport qilinib, 2015 yil ko'rsatkichiga nisbatan eksport qilingan mahsulot miqdori 34% ga ortgan.

Mavzuning dolzarbligi: Markaziy Osiyo davlatlari va O'zbekistonda qovoq o'simligi qadimdan ekib yetishtirib kelinadi. Ushbu ekin turi bo'yicha respublikamizda ham tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Biroq, Xorazm viloyati sharoitida qovoq o'simligini yetishtirish texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan. Xorazm viloyati Respublikamizning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, markaziy va janubiy mintaqalar bilan tuproq-iqlimi sharoitlari farqli, bundan tashqari poliz ekinlarini resurstejamkor agrotexnologiyalarda sug'orilmasdan yetishtirilishi markaziy va janubiy mintaqalar bilan keskin farq qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz 2022 yildan boshlab Xorazm viloyati sharoitida yetishtirish uchun qovoq nav namunalarini tanlash, maqbul ekish sxemalari va muddatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini boshladik.

Respublikamizda qovoq asosiy poliz ekinlaridan biri hisoblanib, uning Ispanskaya 73, Qashqarskaya 1644, Polov kadi navlari yaratilib, davlat reestriga kiritilgan. Ushbu navlarning reestriga kiritilganiga 30-40 yildan oshib ketgan. Hozirgi kunda Xorijiy davlatlarda ko'plab istiqbolli eksportbop, tezpishar navlari yaratilgan bo'lib, bu navlarni Respublikamiz sharoitida sinab ishlab chiqarishga joriy qilish qovoqdan olinayotgan hosildorlikni oshirishga katta xissa qo'shadi. Qovoq Respublikamizning shimoliy xududlarida avgust oyining oxiri-sentyabr oylarida pishib yetiladi va shu davrda eksportga chiqariladigan asosiy poliz mahsulotlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari Xorazm viloyati Gurlan tumanida joylashgan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining dala tajriba uchastkasidagi umumiy 98 ga dala maydonining 50 sotixida o'tkaziladi.

Qovoq urug'larining dala unuvchanligi o'rganish. 2022 yilda qovoq urug' -larini ekishdan 15 kun oldin tayyorlab qo'yilgan urug'lar dalaga ekildi va kuzatuvlar olib borildi.

Dalada qovoq urug'larini unuvchanligi
Qovoq urug'larining dalada unuvchanligi
(ekilgan sana 20.04.2022 y).

№	Qovoq navlari	Urug' soni	Urug'larni unuvchanligi, kun								%
			23.04	25.04	27.04	28.04	30.04	02.05	06.05	08.05	
1	Ispanskaya 73 (Nazorat)	50	5	1	7	2	7	4	2	2	4
2	Qizil kashtan qovoq	50	5	9	3	6	9	5	5	6	2
3	Asalli qovoq	50	6	7	2	5	3	7	4	8	6
4	Katta oltin ilgakli qovoq	50	4	10	4	4	7	6	2	7	4
5	Yaponiskaya	50	3	9	2	9	5	2	1	8	6
6	Colabaza potiron zucco	50	7	0	1	8	6	4	4	7	4
7	Zimnaya slodkaya	50	9	1	4	4	5	9	5	8	6
8	Jemchujina	50	6	7	5	8	1	1	3	4	8
9	Matilda	50	1	7	4	9	6	9	6	1	2
10	Medavoby pirog	50	0	5	1	7	4	7	1	9	8

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 20-aprelda ekilgan qovoq nav namunalari orasidan Yapo'n qovog'i va Zimnaya slodkaya 94-96% gacha bo'lib, unuvchanlik 10-12 kunga kelib tezlashganligi va qolgan navlar nazoratga nisbatan rivojlanishi past bo'lganligi

kuzatildi va boshqa yelish muddatlaridan unuvchanlik yaxshi bo'lganini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevraldagi № PF-4947-son "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2.«O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3281-sonli "Qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish chora-tadbirlari va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning prognoz hajmlari to'g'risida"gi qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reestri. Toshkent : 2020. – 59 b.

4.Ostonaqulov T. E., Zuev V. I., Qodirxo'jaev O. Mevachilik va sabzavotchilik (Sabzavotchilik): Navro'z. – Toshkent : 2018. – b. 360-380.]

5.Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta (s osnovami statisticheskoy obrabotki rezultatov issledovaniy). -Moskva: Agropromizdat, 1985. -351 s.

6.Metodicheskie ukazaniya po ekologicheskomu ispytaniyu ovoshnykh kultur v otkrytom grunte.- Moskva, 1987. -276s.